

XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI VA UNING O'ZBEKISTONDA TUTGAN O'RNI

Yaxyoyeva Ferangiz Olim qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi
magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi hamda uning O'zbekistonda tutgan o'rni muhokama qilinadi. Maqolada ushbu mavzuga oid tushunchalarning mohiyati, nazariy asoslari yo'nalishlari va statistik ma'lumotlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Migratsiya, ishchi kuchi migratsiyasi, ko'chish, BMT, XMT, Versal shartnomasi, tripartizm, imkoniyatlar, oqibatlar, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, immigratsiya, emigratsiya, reemigratsiya, migratsion qoldiq, aqlning oqib o'tishi.

МЕЖДУНАРОДНАЯ ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И МИГРАЦИОННАЯ СИТУАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается международная трудовая миграция и ее роль в Узбекистане. В статье рассматривается сущность понятий, направления теоретических основ и статистические данные, относящиеся к данной теме.

Ключевые слова: Миграция, трудовая миграция, перемещение, ООН, МОТ, Версальский договор, трипартизм, возможности, последствия, внутренняя миграция, внешняя миграция, иммиграция, эмиграция, реэмиграция, миграционный остаток, утечка мозгов.

INTERNATIONAL LABOR MIGRATION AND MIGRATION SITUATION IN UZBEKISTAN

Abstract: This article examines international labor migration and its role in Uzbekistan. The article examines the essence of concepts, directions of theoretical foundations and statistical data related to this topic.

Key words: Migration, labor migration, displacement, UN, ILO, Treaty of Versailles, tripartism, opportunities, consequences, internal migration, external migration, immigration, emigration, re-emigration, migration balance, brain drain.

Kirish: Zamonaviy dunyoda mehnat migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir qismidir. Migratsiya oqimlari bir mamlakatdan ikkinchisiga oqib, qabul qiluvchi mamlakatlarga imtiyozlar beradi, ishchi kuchi tanqisligini to'ldiradi va iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining muhim elementi hisoblangan migratsiya so'zi lotincha "*migratio*" so'zidan olingan bo'lib, "*ko'chib yurish*" ma'nosini anglatadi. Umuman olganda aholi migratsiyasini ichki va tashqi migratsiyaga, tashqi migratsiyani esa migratsiya maqsadidan kelib chiqqan holda turlarga bo'lishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, migratsiya jarayonlari ham davlat, ham xalqaro miqyosda tartibga solinadi. Bugungi kunda mehnat migratsiyasi masalasini to'g'ri hal etish muammosi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatning keyingi bir necha o'n yilliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ahvoli ham shunga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bilamizki, jahon miqyosida mehnat masalalari bo'yicha BMT qoshida tashkil etilgan Xalqaro mehnat tashkiloti(XMT) shug'ullanadi. 1919-yilda Versal shartnomasiga binoan BMT ning ixtisoslashgan agentligi sifatida tuzilgan. XMT ning faoliyati ishchilar, ish beruvchilar va hukumatlarning uch tomonlama vakilligi – tripartizmga asoslanadi. Albatta bu tashkilotning asos solinishiga ko'plab omillar sabab bo'lgan. Ulardan biri bu ijtimoiy sabab bo'lishi mumkin. XX asr boshlarida ishchilarning mehnat va yashash sharoitlari og'ir va qabul qilinishi mumkin emas edi. Ularning ijtimoiy himoyasi deyarli bo'lmagan. Ijtimoiy taraqqiyot iqtisodiy taraqqiyotdan ancha orqada qolgan edi. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi. Tashkilot asoschilari birinchi navbatda ijtimoiy taraqqiyotni global miqyosda targ'ib qilish, jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy tinchlik o'rnatish va saqlash, paydo bo'layotgan ijtimoiy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga hissa qo'shish maqsadida birlashishadi.

Shunday qilib, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi deganda mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi davlatga iqtisodiy va boshqa sabablarga ko'ra bir yildan ortiq muddatga ko'chib o'tishi tushuniladi. Ishchi kuchi migratsiyasi tufayli turli mamlakatlardagi ish haqi darajasi o'rtasidagi farqlar qisqaradi. Ishchi kuchi migratsiyasi natijasida jahon ishlab chiqarish hajmi mehnat resurslarini mintaqalar bo'yicha qayta taqsimlash va ulardan samarali foydalanish evaziga ko'payadi.

Mening ishimdan maqsad jahonda migratsiya holatini hamda O'zbekistonda mehnat migratsiyasining muammolari va sabablarini, ularni iqtisodiy nuqtai nazardan hal qilish yo'llarini o'rganishdan iborat. Ishim maqsadiga erishish uchun men turli xil statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tavsiflash, taqdim etish va ekonometrik modellar tuzish kabi usullardan foydalanaman.

Maqolaning dolzarbligi: Zamonaviy dunyoda migratsiya mamlakatlar, jamiyatlar va insonlarga ko'p imkoniyatlarni yaratadi. Migratsiya aholining ko'chishida, mamlakat chegara xavfsizligida, integratsiyalashuvda muhim iqtisodiy va siyosiy masalaga aylanib bormoqda. Bu nafaqat qabul qiluvchi mamlakatlar uchun, balki ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari tashqi mehnat migratsiyasi masalalarini o'rganish mamlakatimizda mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha yangicha yondashuvlarni o'rganib chiqish, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion chora-tadbirlarni joriy etish va qo'llashga qaratilgan ishlarni olib borish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi mohiyati va turlari:

Migratsiya insoniyat taraqqiyotiga, umumiy farovonlikka va qashshoqlikdan xalos bo'lishga katta hissa qo'shadi. Migratsiya omillari va ta'sirini boshqarish kelib chiqish va boradigan mamlakatlarga daromadlarni bo'lishish imkonini beradi. Jahonda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasiga oid quyidagi atamalarga duch kelishimiz mumkin va ular haqida tushunchaga ega bo'lsak maqsaddan holi bo'lmaydi:

Emigratsiya – mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi

Immigratsiya – mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi

Reemigratsiya – emigrantlarning vatanlariga doimiy ravishda yashash uchun qaytib kelishi

“*Aqlning oqib o'tishi*” – yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi

Migratsion qoldiq – immigratsiya va emigratsiya miqdori o'rtasidagi farq.

Xalqaro mehnat bozori ham boshqa bozorlarga o'xshab talab va taklif asosida shakllanadi va bunga turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bular iqtisodiy, siyosiy va demografik omillar bo'lishi mumkin. Bularning barchasining negizida albatta iqtisodiy omil yotadi. Iqtisodiy omillarga har bir mamlakat iqtisodiyotining mustahkamliligi, uning o'sish darajasi kiradi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlari, ish haqi miqdori o'rtasidagi sezilarli darajadagi farqlar va mehnat sharoitlari aholining o'z mamlakatidan ko'chib ketishiga olib keladi.

Migratsiya daromadlardagi tafovut, demografik nomutanosiblik, iqlim o'zgarishi va mojarolar tufayli kuchayishi kutilmoqda. Jahon banki guruhi xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiyani rag'batlantirish va muhojirlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlarning rivojlanish yutuqlarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan global sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

2023 yilda eng ko'p migrantlar bo'lgan davlatlar ro'yxati: ¹

- Amerika Qo'shma Shtatlari
- Germaniya
- Saudiya Arabistoni
- Rossiya
- Buyuk Britaniya

¹ https://investim.guru/faq/statistika-chislenosti-naseleniya-stran-mira-v-2023-godu?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F

AQSh muhojirlar soni eng ko'p bo'lgan mamlakat bo'lib qolmoqda. Ko'pchilik Amerika jamiyatida muvaffaqiyat qozonishga va orzularini ro'yobga chiqarishga intiladi. Germaniya ham ko'p sonli muhojirlarni o'ziga tortadi. Mamlakat tashrif buyuruvchilar uchun ochiq va ularga o'qish va ishlash uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Saudiya Arabistoni iqtisodiy barqarorligi va ish imkoniyatlari tufayli muhojirlarni jalb qiladi. Rossiya qo'shni mamlakatlardan ko'plab muhojirlarning manzili bo'lib, ularni mehnat bozori va ta'limning mavjudligi bilan o'ziga jalb qiladi. Buyuk Britaniya, yuqori immigratsiya talablariga qaramay, yangi imkoniyatlar va treninglar izlayotganlar uchun jozibador mamlakat bo'lib qolmoqda. Muhojirlar soni vaqt o'tishi bilan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga, shuningdek, migratsiya siyosatining o'zgarishiga qarab o'zgarishi mumkin.

BMT tashkiloti rasmiy sayti aholi bo'limining so'nggi hisob-kitoblariga ko'ra, 2020 yilda dunyodagi xalqaro migrantlar soni, ya'ni o'z mamlakatidan tashqarida yashovchi odamlar 281 millionga yetgan. Migrant ayollar xalqaro migrantlarning 48 foizini tashkil qilgan. Xalqaro muhojirlarning deyarli to'rttadan uch nafari 20 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar, 41 million xalqaro migrant esa 20 yoshgacha bo'lganlardir. Xalqaro migrantlarning asosiy qismi Osiyo va Yevropada (har biri 31 foiz), Shimoliy Amerikada (21 foiz), Afrikada (9 foiz), Lotin Amerikasi va Karib dengizida (5 foiz) va Okeaniyada (3 foiz) istiqomat qiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining butun davri mobaynida migratsiya siyosati tubdan o'zgardi. Mamlakatdan doimiy yashash uchun ketayotganlar soni barqarorlashdi va kamaydi. Bunga migratsiya jarayonlarining normallasuvi yordam berdi. Tashqi bandlikni liberallashtirish O'zbekistondagi mehnat migrantlariga xalqaro mehnat bozorining to'la huquqli ishtirokchisiga aylanish imkonini berdi. Bugungi kunda mehnat migratsiyasining asosiy oqimi Rossiya Federatsiyasi va Turkiyaga qaratilgan.

Respublikamizning demografik dividendlaridan samarali foydalanish davlatimizning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda har yili


650 ming nafarga yaqin yoshlar umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini bitirib, ulardan 160-165 ming nafari oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirmoqda. Oʻzbekiston iqtisodiyotida yiliga oʻrtacha 300 mingdan ortiq yangi ish oʻrinlari yaratilib, buning natijasida 200 mingga yaqin yoshlar mustaqil ravishda, jumladan, xorijda ham ish izlay boshlaydi. 2022-yil 1-aprel holatiga koʻra, Oʻzbekistonda respublikadan tashqarida joylashgan mehnat muhojirlari soni qariyb 2,4 million kishini tashkil etadi, ularning 76 foizi erkaklar va 24 foizi ayollardir. Asosan Oʻzbekistonni past malakali ishchilar va oʻrta maxsus maʼlumotlilar tark etmoqda. Bugungi kunda migrantlarning asosiy qismi qurilishda – 51,6%, qishloq xoʻjaligida – 12,3%, sanoatda – 9,2%, savdoda – 8,5% va boshqalar kabi sohalarda mehnat qilmoqda. Birgina joriy yilning yanvar-mart oylarida xorijga ishlash uchun ketgan vatandoshlar soni 486,1 ming kishini tashkil etib, migrantlarning ketish geografiyasi asosan Rossiya (70,2 foiz), Qozogʻiston (13,4 foiz), Qirgʻiziston kabi davlatlarda toʻplangan (8,7%), Turkiya (3,8%), Afgʻoniston (1,1%), Koreya (0,6%), BAA (0,4%) va boshqalar.

Oʻzbekistonning jahon iqtisodiyotida jadal surʼatlarda integratsiyalashuvi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarining kengayishi tashqi migratsiya geografik yoʻnalishining uzoq xorij mamlakatlari tomon oʻzgarishiga olib kelmoqda. Oʻzbekiston mehnat migratsiyasi boʻyicha qator mamlakatlar bilan bitimlar imzolagan. Jumladan, 1994-yil iyulda Oʻzbekiston, Qirgʻiziston, Qozogʻiston oʻrtasida «Migratsiya sohasida hamkorlik toʻgʻrisida» Memorandum, 1995-yilda Koreya Respublikasi bilan, 2007-yilda Rossiya bilan ikki tomonlama kelishuvlar imzolangan. Chunonchi, Koreya kichik va oʻrta biznes Federatsiyasi, Koreya Qurilish assotsiatsiyasi bilan “Oʻqitish, ishga joylashtirish sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida” Kelishuvlar imzolanganidan soʻng xorijliklarning sanoat tajribasi tizimi boʻyicha Koreya Respublikasida 1995-2008-yillarda 24 mingdan ortiq fuqarolar ishga joylashishgan.²

² Rasulova D. B. “Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari” – T.: Moliya, 2010-yil, 137-bet

Jahon banki tomonidan “O‘zbekiston fuqarolarini tinglab” loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, mehnat migrantlari bo‘lgan uy xo‘jaliklarining ulushi hozirda 2019-yil darajasiga ko‘tarilgan, ya’ni taxminan 20% ni tashkil etadi, bu deyarli har beshinchi oilada mehnat migranti mavjudligini tasdiqlaydi.

2021-yilda O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 8,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, shundan 5,7 milliard AQSh dollari (ya’ni 70 foizi) kelib tushdi. Rossiya Federatsiyasidan oylik pul o‘tkazmalari miqdori har bir mehnat migrantiga 453 AQSh dollari to‘g‘ri keldi.



3

Bugungi kunda mehnat migratsiyasining ayrim sohalari O‘zbekistondan davlat tomonidan tartibga solinadi va boshqariladi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistondan mehnat muhojirlarining asosiy qismi qariyb 2 million kishi Rossiyaga keladi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda bu mamlakatga migratsiyaning qisqarishi kuzatilmoqda, asosiy sabablar ushbu mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat bilan bog‘liq. Biz Rossiya Federal Migratsiya Xizmati tomonidan mamlakatda mehnat faoliyati uchun patent joriy etilishi, shuningdek, ro‘yxatga olish tartib-qoidalarining murakkabligi kabi omillarni ham ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning birinchi choragida Rossiyadan O‘zbekistonga 133 ming migrant qaytgan. Buning sababi rossiyalik ish beruvchilar tomonidan ish haqining kechikishi bo‘lishi mumkin.

³ <https://strategy.uz/index.php?news=1813&lang=ru>


Kelishlariga yana bir sababini rublning qadrsizlanishi tufayli joriy maoshlarining xarid qobiliyatining pasayishi bilan izohlashadi. Shu bilan birga, muhojirlarning aksariyati Turkiya yoki Ozarbayjon kabi boshqa mehnat bozorlariga yo'naltirishni afzal ko'rishdi.

Umumiy foydalanish mumkin bo'lgan Internet saytlaridan olingan ma'lumotlarning tahlili mehnat migratsiyasi masalalarida bir qator muhim muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shunday qilib, O'zbekiston, deb atalmish Mehnat "donori" ishsizlikni kamaytirish, chet elda, birinchi navbatda, Rossiyada mehnat qilayotgan fuqarolarning mehnat huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan ichki mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilash choralarini ko'rmoqda. Xorijga ishlash uchun ketayotgan barcha fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi bugungi kunda xorijda ishlash istagini bildirgan yetarlicha ko'p sonli migrantlarni xorijda qonuniy ish bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan, mehnat muhojirlarining aksariyati ushbu agentlik xizmatlaridan foydalanmaydi, chunki chiqish tartibiga ko'ra, mehnat migratsiyasi uchun chet elga ketayotgan shaxslardan majburiy kasb-hunar ta'limidan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat talab qilinadi va shuning uchun ko'pchilik fuqarolar tavakkal qilishni afzal ko'radilar. Bu holat ularning shubhali vositachilar xizmatlaridan foydalanishiga katta hissa qo'shadi. Mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 27 davlati bilan tashkiliy bandlik masalalarida hamkorlik qilish to'g'risida kelishuvlarga ega bo'lib, ular orasida UNDESA hisob-kitoblariga ko'ra, Germaniya, Saudiya Arabistoni, BAA kabi mehnat muhojirlariga talab eng yuqori bo'lgan davlatlar bor. Mehnat migratsiyasining o'sish tendentsiyasini saqlab qolishga xizmat qiluvchi omillarni hisobga olgan holda, O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish, uning yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan, shu jumladan uning noqonuniy tarkibiy qismiga olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini

ko‘rish, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soluvchi migratsiya siyosatini shakllantirish.


Yurtimizdagi migratsiya holatini tahlil qilishda biz ularni yaxshiroq tushunishimiz va to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz uchun ekonometrik modellardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu maqolada 2000 yildan 2022 yilgacha O‘zbekistondan ko‘chib ketganlar ko‘rsatkichlarini o‘rganib, kelgusi 3

yil, ya’ni 2023, 2024 va 2025 yillar uchun prognozlar berilgan.




Grafikda 2000 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan tendensiya ko‘rsatilgan. Bu yerda normal darajada o‘shishlar, pasayishlar va jadala sur‘atlardagi o‘shishni ko‘rishimiz mumkin. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, ushbu tendensiya 2021 yilda o‘zining eng yuqori natijasini qayd etgan, ya’ni 261107.50

ming kishini tashkil etgan.



Forecast from SMA(3) with Normal distribution



O'zbekistondan ko'chib ketganlar ko'rsatkichining o'zgarishini bashorat qilish uchun ARIMA modelidan foydalanilgan. Tahlillar natijalariga ko'ra 95% aniqlik bilan aytadigan bo'lsak, 2023 yilda ko'chib ketganlar soni 268 894,10 ming kishi bo'lishi kuzatiladi. Biroq, 2025 yilga kelib yana 224 000 ming kishiga pasayib, kelgusi yillarda stabil holat kuzatiladi: 2026 va 2030 yillarda mos ravishda 224 000 ming va 225 000 ming kishi.

Xulosa

Migratsiya tahdid emas, balki uni hayot haqiqati deyishimiz mumkin va bu barchamizga ta'sir qiladi. Mamlakatlar aholisi va iqtisodiyoti tobora o'zaro bog'lanib bormoqda. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda muhojirlar va migratsiyaga nisbatan kuchli noto'g'ri qarashlar bilan jamoatchilik fikrida tafovut kuchayib borayotganini ko'ryapmiz. Shubhasiz, o'sib borayotgan migratsiya oqimi bu tashvishga hissa qo'shishi mumkin. Jahonda yuz berayotgan migratsion vaziyatlarning mamlakatlarga nafaqat salbiy tomonlari, balki ijobiy ta'siri ham bor. Masalan, O'zbekiston Respublikasining xorij mamlakatlariga ishchi kuchini eksport qilishi tufayli: ishchi kuchi eksporti tufayli respublika milliy daromadiga xorijdan mablag' kelib qo'shiladi. Bu daromad hisobiga yangi ish joylarini barpo etish, ishsizlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larga ega bo'lish mumkin. Xorijda ishlab kelgan fuqarolarimiz o'zlari bilan birga eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarni, ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalarni, zamonaviy texnologiyalarni va yangi texnikani boshqarishni o'rganib qaytadilar. Mamlakatimizni o'z mehnatsevarliklari bilan jahonga tanitadilar, chet tillarini o'rganadilar. Mehnat qilish va malaka oshirish usullarini o'rganib keladilar. O'zbekiston xalqaro migratsiya aloqalarining kelajakda yanada rivojlanishidan manfaatdor. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi va xalqaro mehnat migratsiyasining faollashuviga olib keladi. O'zbekiston xalqaro va migratsiya jarayonlari tizimi hamda xalqaro umumiy mehnat bozorining global ijtimoiy-iqtisodiy qismi bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasining 28-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari butun dunyo bo'ylab erkin harakatlanish huquqiga egadirlar. Respublika hududiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga kirish va undan chiqishga, qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlar bundan mustasno" deyilgan.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 28-moddasi

Rasmiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 28-moddasi
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori – “o‘zbekiston respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 05.07.2018 yildagi PQ-3839-son <https://lex.uz/uz/docs/-3811317>
3. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev Darslik - “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” Toshkent-2015 yil
4. Rasulova D. B. “Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari” – T.: Moliya, 2010-yil.

Rasmiy hujjatlar:

1. World Development Report 2023
2. World Migration Report final-2020

Ilmiy maqolalar:

1. “Taraqqiyot strategiyasi” markazining – “МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ, ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ” mavzusidagi 9 oktabr 2023 yildagi soni <https://strategy.uz/index.php?news=1813&lang=ru>
2. “СОВРЕМЕННЫЕ МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В КОНТЕКСТЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ ПРОТИВОРЕЧИЙ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА” - С.П. Базылева - Российский университет дружбы народов ул. Миклухо-Маклая, 6, Москва, Россия, 117198 – 2018 yil <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-migratsionnye-protsessy-v-kontekste-regionalnyh-protivorechiy-na-primere-uzbekistana>

Rasmiy saytlar:

1. <https://www.un.org/ru/global-issues/migration>
2. <https://blogs.worldbank.org/peoplemove/migration-fact-life-and-more-people-ever-are-moving-0>

3. <https://www.worldbank.org/en/topic/migration>
https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B8%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F_%D0%BD%D0%B0%D1%81%D0%B5%D0%BB%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F
4. https://investim.guru/faq/statistika-chislennosti-naseleniya-stran-mira-v-2023-godu?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F